

Korrupsiyaga qarshi kurashish - muhim vazifa

9-dekabr Xalqaro korruptsiyaga qarshi kurashish kuni munosabati bilan institutimizning “Elektrotexnika va mexatronika” kafedra mudiri dotsent R.J Baratov va kafedra professor-o’qituvchilari bilan birga “Texnika va texnologiyalarning texnik ekspertizasi va marketingi” ta’lim yo’nalishi 1-kurs talabalari o’rtasida uchrashuv bo’lib o’tdi. Uchrashuv natijasida dotsent A. Denmuxammadiev davlat va jamiyatning rivojiga, xalqning adolatga bo’lgan ishonchiga jiddiy putur yetkazadigan xavf – korruptsiya xavfining oldini olish va unga qarshi kurashish borasidagi ishlar Respublikamizda izchillik bilan amalga oshirilayotganligi borasida ma’lumot berdi. Shu bilan birga talabalar kafedra professor-o’qituvchilari bilan yaqindan tanishdilar va o’z mutaxassisligi bo'yicha o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar.



“E va M” kafedra assistenti A. Mustafoqulov axboroti
TIQXMMI matbuot xizmati